

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

DONG LINA

**XITOIY AMERIKA DIASPORA ADABIYOTI VA UNING EMI
TAN IJODIGA TA’SIRI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological
sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Dong Lina

Xitoy Amerika diaspora adabiyoti va uning Emi Tan ijodiga ta’siri3

Dong Lina

Chinese American Diaspora Literature and Its Impact on Amy Tan’s Works.....21

Донг Лина

Литература китайско американской диаспоры и ее влияние на творчества
Эми Тан.....37

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ44

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

DONG LINA

**XITOIY AMERIKA DIASPORA ADABIYOTI VA UNING EMI
TAN IJODIGA TA’SIRI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4593 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb- sahifasida (www.uzswlu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Ruzmatova Dilnoza Ramatjanovna**
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Lixodzievskiy Anatoliy Stepanovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Ziyomammedov Jasur Tashpulatovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Samarqand davlat chet tillar instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «4» aprel kuni soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92, e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1163 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «19» mart kuni tarqatildi.
(2025-yil «19» mart daqi 2 raqamli reyestr bayonnomasi).



I.M. Tuxtasinov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
ped. f.d., professor

X.B. Samigova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filol. f.d., professor

J.A. Yakubov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, filol. f.d., professor

KIRISH (PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. XX-XXI asr jahon adabiyotshunosligida boshqa davlat va xalqlar adabiy muhitini namoyon etuvchi yozuvchilarning badiiy dunyosini yangicha yondashuvlar orqali o'rganishni nazarda tutuvchi diaspora nazariyasi katta ahamiyat kasb eta boshladi. Bu nazariyaning eng muhim aspekti turli xalqlar an'alarining mushtarak va o'ziga xos jihatlarini, ularning adabiy asarlardagi tasvirini o'rganishni o'z ichiga oladi. Tarixiy ildizlari turlicha bo'lgan ikki xalq misolida, ya'ni Amerikadagi xitoy millatiga mansub insonlarning turmush tarzi va urf-odatlar tarannumi, ushbu masalalarning Xitoy-Amerika diasporasi adabiyotidagi ifodasi kabi masalalarni o'rganish zamonaviy adabiyotshunoslikning ahamiyatga molik vazifalaridandir. Ushbu ikki xalqning adabiy-madaniy muhiti, o'zaro ijtimoiy munosabatlari, tarixiy-adabiy jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlari, ijtimoiy muhit haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar o'ziga xos yondashuvni taqozo etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida Xitoy-Amerika diaspora adabiyotiga xos badiiy tafakkurning bosqichma-bosqich rivojlanishini belgilab beruvchi ijtimoiy-psixologik omillarni tahlil qilish muhim vazifa sanaladi. Til, madaniyat va adabiyotning turli makon va zamon kontekstlarida o'zaro ta'siri natijasida shakllangan mazkur adabiyot tarixiy-madaniy, tarixiy-qiyosiy usullar, biografik yondashuvlardan foydalangan holda zamonaviy adabiyotshunoslik doirasida o'rganishni taqozo etadi. Diaspora adabiyoti namoyandalari romanlaridagi tafakkur, uslubiy o'ziga xosliklar, turli sharoit va zamondagi voqealar ifodasi, syujet va kompozitsion yaxlitlik, yozuvchining shaxs, jamiyat va borliq bilan dialogik munosabatlariga chuqur singib ketganligini bildiradi. Ushbu keng qamrovli tadqiqot ishi Emi Tan asarlari haqidagi ma'lumotlarni jahon ilmiy hamjamiyatiga yetkazish zaruriyati mavjudligiga urg'u beradi.

O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi natijasida so'nggi yillarda ilmiy va adabiy tafakkur tubdan yangilandi. Shunisi e'tiborga loyiqki, bugungi kunda G'arb va Sharq adabiy an'analari doirasida ishlab chiqilgan tamoyillarning sezilarli darajada yaqinlashuvini kuzatish mumkin. Zero, bizning asosiy maqsadimiz – keng qamrovli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim sohasidagi islohotlar orqali O'zbekistonda yangi davr, xususan, Uchinchi Renessans davriga poydevor qo'yishdir. Bu maqsadga erishish uchun jamiyatning har bir a'zosi Uchinchi Renessans davrining mohiyatini chuqur anglashi zarur. Buyuk ajdodlarning betakror ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun shijoat va ilhom baxsh etuvchi hayotiy dasturilamal bo'lib xizmat qilishi kerak.¹ Sharq va G'arb adabiy an'analari hamda diaspora adabiyoti singari adabiy-estetik hodisalarning badiiy sintezini o'rganish ham shu jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Emi Tanning asarlarini o'rganish ushbu masalalarni yaqindan yoritishga va amaldagi madaniy aloqalarni chuqurroq tushunishga katta hissa qo'shadi.

Ushbu dissertatsiya me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalar va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // <http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-itiv> [murojaat sanasi: 30.09.2023].

tashabbuslar ijrosiga to'la mos keladi. Xususan, mazkur ilmiy tadqiqot 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PQ-4947-sonli hamda 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosiga xizmat qiladi. Shuningdek, 2017-yil 17-fevraldagi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish, shuningdek, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishga qaratilgan PQ-2789-sonli Prezident qarorida nazarda tutilgan chora-tadbirlar ham ushbu ish doirasida amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bundan tashqari, tadqiqot ishi "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga va o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillarga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 18-maydagi 376-sonli Qarorda, 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonda belgilangan vazifalarning amaldagi ijosini ta'minlashda va mavjud muammolarni hal etishda muayyan darajada xizmat qilmoqda.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya I. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Amerika va boshqa madaniyatlar mushtarakligi, turli xalqlar an'analarining uyg'unligi asosida yaratilgan diaspora adabiyoti tamoyillari G'arb adabiyotshunoslari M.Ilyas, D.Xelli, M.M.Rayhanah, R.Blyumental tomonidan olib borilgan tadqiqotlar doirasida ishlab chiqilgan va nazariy jihatdan o'rganilgan.² Afrika, xitoy, koreys, yapon, afg'on va janubiy osiyolik yozuvchilarning³ Amerika adabiyotidagi maqomini belgilash bo'yicha olib borilgan

² Ilyas M. Expatriate Experience and the Fictional World of Diaspora // Journal of Social Studies Education Research, 2018. – № 9 (1); Helly D. Diaspora: History of an Idea, in Muslim Diaspora: Gender, Culture, and Identity, ed. Haideh Moghissi. – New York: Routledge, 2006. XIV; Raihanah M.M. et al. Exploring representations of Self by Diasporic Muslim Writers // Procedia. – Social and Behavioral Sciences, 2014. 118. – P. 365-370; Blumental R. Looking for Home in the Islamic Diaspora of Ayaan Hirsi Ali, Azar Nafisi, and Khaled Hosseini // Arab Studies Quarterly, 2012. Vol. 34. – № 4, etc.

³ Sadat M. "The Afghan Experience: An Exploratory Study of Societal Realities through the Lenses of Afghan Diasporic Literary Works". PhD diss. – Claremont Graduate University and San Diego State University, 2006. – 293 p.; Corallo R. The Journey to Becoming Cultural and Political Awakening to Nomadic Art in the Work of Afghan American Female Artists. – New York, 2017. – 191 p.; Niazi A. Intergenerational Trauma in Second Generation Afghan American males. – San Francisco, 2019. – 200 p.; Stamper C. Women Rewriting Scripts of War: Contemporary U.S. Novels, Memoir and Media from 1991-2013. – Arizona, 2015. – 178 p.; Solomon M. Afghan Muslim Male Interpreters and Translators: An Examination of Their Identity Changes and Lived Experiences During Pre - and Post-Immigration to the United States during the Afghanistan War (2003-2012). – Nova, 2015. – 346 p.; O'bryan C. Gender, Mobility and Self: Afghan Women in Vancouver British Columbia. – Oregon, 2014. – 326 p.; Buchenon D. Rotten Symbol Mongering: Scapegoating in post-9/11 American War Literature. – Denver, 2015. – 398 p.; Angemeer A. Reading the Other and Reading Ourselves: An Interpretative Study of amazon.com Reviews on Bestsellers about Muslims. – Pittsburgh, 2012. – 241 p.; Richards M. Literary Journeys to Ethical Understanding. – Calgary, 2010. – 155 p.; Malik M. Multicultural Ways of Knowing: Reading "The Kite Runner" in a Grade 11 class. – Ontario, 2010. – 204 p.; Yulianto W. Historicizing Muslim American Literature: Studies on Literature by African American Muslim Writers. – Arkansas, 2018. – 178 p.; Taliaferro C. Ninth Grade Students' Negotiation of Aesthetic Efferent? And Critical Stances in Response to a Novel Set in Afghanistan. – Texas, 2011. – 156 p.; Shah B. Orientalism, Occidentalism, and the Language of

ilmiy izlanishlar natijasida ularning adabiy asarlarida Yevropa tafakkuri hamda Amerika turmush tarzi ustunlik qilishini qayd etish lozim. Adabiyotshunos M.Ilyas “**diaspora**” va “**ekspatriant**” tushunchalarini izohlab, chet el adabiyoti afro-amerikaliklar adabiyoti va etnik adabiyot⁴ kabi alohida fan sohasi emas, balki diaspora adabiyotining bir qismi ekanligiga e’tibor qaratadi. D.Xelli diaspora atamasiga “vatanidan uzoqda yashaydigan aholi”, deya ta’rif berib, o‘z mamlakatidan ketib, muhojirlikda qiyinchiliklarni boshidan kechirgan yozuvchilarni diaspora adabiyoti vakillari sifatida e’tirof etgan bo‘lsa, M.M. Rayhanah mazkur yozuvchilar o‘zlari tug‘ilib o‘sgan joydan uzoqda yashasalar-da, har doim o‘zligini, “men”ini topishga harakat qilib kelishgan. Boshqa bir adabiyotshunos R.Blyumental esa islom diasporasi adabiyoti yozuvchilari asarlarida ilgari surilgan ideal makon Sharq yoki G‘arbm, degan muammoni ko‘ndalang qo‘yadi.⁵

Diaspora adabiyotini, xususan, Osiyo-Amerika adabiyotining tanqidiy tahlili haqida gap ketganida Edvard Saidning “**orientalizm**” nazariyasini ta’kidlab o‘tish joiz. Uning nazariyasida Sharqning G‘arb davlatlari tomonidan kamsitib tasvirlanishi ko‘rsatib berilgan.⁶ Saidning ta’kidlashicha, Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va Osiyoni anglatuvchi “Sharq” atamasi G‘arb ilm-fani, adabiyoti va san’ati namoyondalari tomonidan jipslashgan, g‘ayrioddiy va quyiroq xalqlarni ifodalovchi atama sifatida tavsiflangan. Bu g‘oya, o‘z navbatida, G‘arbning Sharqdagi siyosiy va madaniy hukmronligini oqlash hamda mustahkamlashga xizmat qilgan. Edvard Said orientalizm nuqtayi nazarini tanqid ostiga olib, u Sharqni neytral yoki xolis o‘rganish emas, balki bosma qoliqlar, noto‘g‘ri qarashlar va yevrotsentrik tarafkashliklarni davom ettiruvchi hokimiyat nutqining shakli ekanligini ta’kidlaydi.

Tadqiqot ishimizda Osiyo-Amerika adabiyoti asarlari Saidning orientalizm nazariyasiga asoslangan holda har tomonlama o‘rganildi. Shu o‘rinda Amerika adabiyotshunoslari va olimlari Emi Tan ijodini o‘rganishga katta hissa qo‘shishganini alohida e’tirof etish zarur. Bunday adabiyotshunos olimlar qatoridan Meri Ellen Snodgrass, Bella Adams va Vendi Xoni o‘rin olgan bo‘lib, ular Emi Tanning hayoti, ijodi va asarlaridagi qahramonlar haqida yangicha yondashuv bilan keng qamrovli tadqiqotlar o‘tkazishgan.⁷ Ushbu olimlar Emi Tan ijodini Osiyo-Amerika adabiyoti kontekstida muhokama qila turib, o‘zlikni anglash, oila va avlodlar o‘rtasidagi munosabatlar mavzulariga urg‘u berib ketishgan. Tan romanlaridagi madaniy o‘ziga xoslik va tasvirning murakkabliklarini ta’kidlash asnosida Tanning Osiyo-Amerika adabiyotiga o‘tkazgan ta’sirini ijobiy baholashgan. Ularning tadqiqot natijalari osiyo-amerikalik diasporasiga mansub ona va qizning o‘zaro yozishmalarida irq, jins va sinfnig murakkab kesishuvlarini tushunib yetishda qimmatli manba vazifasini

Conciliation: Political Discourses in the 9/11 Novel. – Pennsylvania, 2013. – 272 p.; Mader A. The Importance of Reading Said: Orientalism, Women, and Postcolonial Literature after 9/11. – Calgary, 2017. – 185 p.

⁴ Ilyas M. Expatriate Experience and the Fictional World of Diaspora. Journal of Social Studies Education Research, 2018. – № 9 (1). – P. 106-123.

⁵ Blumental R. Looking for Home in the Islamic Diaspora of Ayaan Hirsi Ali, Azar Nafisi, and Khaled Hosseini // Arab Studies Quarterly, 2012. Vol. 34. – № 4. – P. 250-264.

⁶ Edward W. Said. Orientalism. – London: Penguin Books, 2019. – 432 p.

⁷ Mary Ellen Snodgrass. Amy Tan: A Literary Companion. – Jefferson, NC: McFarland, 2004. – 240 p.; Bella Adams. Amy Tan (Contemporary World Writers). – Manchester University Press, 2005. – 232 p.; Wendy Ho. In Her Mother’s House: The Politics of Mother-Daughter Writing. – Walnut Creek, CA: AltaMira Press, 2000. – 288 p.

o‘taydi. Frank Chin va Jeffri Pol Chan kabi xitoy-amerikalik yozuvchilar ham Emi Tan ijodi haqida munozarali hamda o‘rinli fikrlarni bildirishgan.⁸

Hindistonlik adabiyotshunos olimlar M.Manjula, Nomita Loktongbam, N.Durga Emi Tanning asarlaridagi madaniy o‘ziga xoslik, madaniyatlararo ta’sir, ko‘p madaniyatlilik, madaniy tafovut va ziddiyatlar, madaniyatlararo inqiroz va muloqot kabi madaniy masalalarga e’tibor qaratishgan. Bhattacharya Baisaxi ayol identikligi inqirozining ikki turiga e’tibor qaratadi: ona va qiz munosabati hamda Amerika madaniyatini o‘zlashtirayotgan qizlar hamda an’anaviy etnik va madaniy merosni saqlab qolish ilinjidagi onalar o‘rtasidagi ziddiyat.⁹ Sushil Meri Metyus o‘z tadqiqotida Emi Tanning romanlarida tasvirlangan ijtimoiy, psixologik va hissiy holatlarni o‘rganib chiqqan.¹⁰

Bir qator hind tadqiqotchilari xarakter, munosabatlar, taqdir, ayollarning kurashlari va qiyinchiliklarga qaramay, o‘zligini anglab yetishdagi yutuqlari kabi masalalarga urg‘u berishgan. Vidxyavati Emi Tanning asarlaridagi personajlarni tahlil qilib, “ularning oilaviy rishtalar, irqiy kamsitish, qashshoqlik va institutsional din mafkurasi bilan ifodalanadigan kuchga qanday qarshilik ko‘rsatishini” misollar orqali yoritib bergan. Tanning personajlari o‘zgarishlarni iliq kutib olib, ekspluatatsiya bilan bog‘liq vaziyatlarni to‘g‘irlashga harakat qilishadi va madaniyatlararo ta’sir orqali birovga bo‘ysunishdan xalos bo‘lishga erishishadi.¹¹ Govher Ahmad Naik, S.Priyadharshini, Mohinit Kaur Boparai va Suxman Kaur Dahiya kabi olimlar Emi Tan hamda hind yozuvchilari tomonidan tasvirlangan diaspora personajlarini qiyosiy tadqiq qilishgan.¹² Himadri Lahiriy ham “muvozanatlashgan tenglik hukmron bo‘lgan chegarasiz dunyo” qurish umididagi bir qancha osiyo-amerikalik ayol yozuvchilarning asarlari bo‘yicha qiyosiy tadqiqot olib borgan.¹³

Nensi Tambi begonalashish va murosaga kelish nafaqat onalar hamda qizlar o‘rtasida, balki Sharq va G‘arb o‘rtasida ham yuz berayotganligi haqidagi g‘oyasini ilgari surgan.¹⁴ Gurinder Kaur Singx insonlar boshqa mamlakatga ko‘chib ketganlaridan keyin ham etnik kelib chiqishlariga qanchalik darajada sodiq

⁸ Frank Chin. *Contemporary Literary Criticism*. Ed. Jeffrey W.Hunter. Vol. 135. – Detroit: Gale Group, 2001. – P. 150-202; Frank Chin, Jeffrey Paul Chan, et al. *The Big Aiiiiiiii!: An Anthology of Chinese American and Japanese American Literature*. – Plume, 1991. – 640 p.

⁹ Bhattacharya Baisaxi. *Cross Cultural Hermeneutics and Identity Crisis in the Novels of Amy Tan*. University of Madras, 2015. – 236 p.

¹⁰ Sushil Mary Mathews. *Legacy of Fortitude a Study of the Women Characters in the Novels of Amy Tan*. – Bharathiar University, 2009. – 249 p.

¹¹ Vidhyavathi V. *Intercultural Interaction in Amy Tan’s Novels*. – SRM University, 2011. – P. 7.

¹² Gowher Ahmad Naik. *Multiculturalism and Socio Political Issues in Select Novels of Zadie Smith and Amy Tan*. – Lovely Professional University, 2017. – 267 p.; Priyadharshini C.P.C. *Journey towards A New Dawn in the Select Novels of Amy Tan and Jhumpa Lahiri*. – Bharathiar University, 2019. – 260 p.; Mohineet Kaur Boparai. *Subalternity and the Emergence of Agency in Selected Novels of Toni Morrison, Amy Tan and Abdullrazak Gurnah*. – Punjabi University, 2017. – 217 p.; Sukhman Kaur Dahiya, *Hyphenated Identity and Experience a Critical Analysis of Selected Chinese American Women Novelists*. – Punjabi University, 2014. – 156 p.

¹³ Himadri Lahiri. *Writing from the Margin a Study of Asian American Women Writers Response to Immigration With Special Reference to Maxine Hong Kingston Amy Tan Monica Sone Hisaye Yamamoto and Bharati Mukherjee*. The University of Burdwan, 2002. – P. 212.

¹⁴ Nancy Thambi. *Spatial Reconciliation The Influence of Space on the Women Characters in the Select Novels of Amy Tan*. Bharathiar University, 2016. – P. 33.

qolishlarini va an'analarni davom ettirishlarini o'rgangan.¹⁵ Jenefa Kiruba Mala Amerikadagi ayollar tarixini chuqur o'rganib chiqib, onalarning zamonaviy dunyoda qanday qilib "vatanlari va keyinchalik borib o'rinishgan yerlari, shaxs va jamiyat o'rtasidagi tafovutlarni, turli madaniy inqirozlarni qabul qilish va bartaraf etish, diasporalarning ozodlik g'oyasini yoyish vazifasini ilgari surishdagi ahamiyatini" ko'rsatib bergan.¹⁶ Svetha Ravindran Amerika Qo'shma Shtatlaridagi xitoylik muhojirlarning diasporasini tahlil qilib, o'tmishning xitoylik muhojirlarning bugungi kundagi hayotiga bo'lgan ta'sirini kuzatgan.¹⁷ "Ular muhojir sifatida ko'chib borishganidan keyin qabul qilgan nasroniylik dini ularni qadimgi dinlarini tark etishga majburlamaydi. Xitoyliklar har ikki dinning yaxshi fazilatlarini o'zlashtirganlar"¹⁸, deyiladi uning tadqiqot ishida.

Tao Du Emi Tanning ijodini postkolonial nuqtayi nazar asosida o'rganib chiqqan va "**identiklik**" doimo shakllanish jarayonidir hamda u yoki bu guruhning barqaror xususiyati rolini bajara olmaydi, degan xulosaga kelgan.¹⁹ Jianjun Zou Emi Tan o'zining barcha romanlarida uyg'unlikning axloqiy g'oyasini tadqiq qilishda davom etadi, degan mulohazani bildirgan. Uning yozishicha, "Xitoy va G'arb an'anaviy madaniyatidagi uyg'unlik tushunchasi uning romanlarida ko'plab axloqiy tavsiflar bilan birga ochib berilgan... Bu, o'z navbatida, dunyoning uyg'unlashuvi, shuningdek, insoniyat tinchligi va jamiyat rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi".²⁰ Xiaohui Chen Maksin Xong Kingston, Emi Tan va Ian Geling asarlaridagi matnlarning talqini haqida ilmiy ish olib borgan.

Kuiping Liu Emi Tanning inson madaniyati haqidagi mulohazalarini, uning "odamlar va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni, odamlar va oddiy his-tuyg'ularimizdan tashqaridagi ruhiy dunyo o'rtasidagi munosabatlarni yoki hikoya yo'sinining estetik ifodasini so'roq ostiga olib bildirgan qarashlarini o'rgangan".²¹ Chen Ma Tanning makonni tasvirlash uslubini tahlil qilish asnosida "xitoylik bo'lish"ning murakkab jihatlariga e'tibor qaratadi. Xiu Ving Vong o'z ishida Maksin Xong Kingston va Emi Tan asarlaridagi "suhbat asosiga qurilgan hikoyalar"ni solishtiradi.²² O'zbek adabiyotshunosi Dilnoza Ruzmatova "Xolid Husayniy asarlarining badiiy o'ziga xosligi" nomli ilmiy tadqiqot ishida diaspora adabiyotini chuqur tadqiq eta turib, uning uchta asosiy xususiyatini izohlaydi: tillar va madaniyatlararo to'qnashuv, biografik metoddan foydalanish va vaqt va makon

¹⁵ Gurinder Kaur Singh. *Ethnic retention and multi identities in the Works of Amy Tan and Chitra Banerjee Divakaruni a Critical Study*. – Punjabi University, 2015. – 368 p.

¹⁶ Jenefa Kiruba Malar S. *The Chinese of America 'the Land of Not-Yet' and Concoction of Culture in Amy Tan's Fiction*. Manonmaniam Sundaranar University, 2015. – P. 1.

¹⁷ Sweta Ravindran. *Chinese Diasporic Experience: A Study of the Novels of Amy Tan*. – Bharathidasan University, 2018. – 175 p.

¹⁸ Sweta Ravindran. *Chinese Diasporic Experience: A Study of the Novels of Amy Tan*. – Bharathidasan University, 2018. – P. 147.

¹⁹ Tao Du. *Identity in Cultural Displacement: Cultural Translation in Diaspora Chinese American Literature*. – Shanghai International Studies University, 2012. – P. 1.

²⁰ Jianjun Zou. "Harmony" in Positive Dimension and in Negative Dimension-on the Ethics in Amy Tan's Novels. *Huazhong Normal University*, 2008. – P. 3.

²¹ Quiping Liu. *An Ecological Return to Harmony in Amy Tan's Novels* Université Toulousel e Mirail, 2017. – P. 7.

²² Hiu Wing Wong. "Talk-stories" in the Fictions of Maxine Hong Kingston and Amy Tan. *University of Warwick*, 2006. – 305 p.

mutanosibliği²³.

Emi Tan ijodining mavzulari va personajlaridan tortib, asarlari tili va hikoya qilish uslubigacha bo'lgan turli jihatlari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, O'zbekiston va Xitoyda Xitoy-amerika diasporasi adabiyoti hamda uning Emi Tan asarlariga ta'sirini tadqiq etuvchi keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar mavjud emas.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida Angliya va Amerika adabiyoti tarixi hamda dolzarb masalalari, badiiy tahlil usul va tamoyillari ustuvor ilmiy yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Emi Tan ijodi misolida Xitoy-amerika diaspora adabiyotining umumiy qonuniyatlari, ichki va tashqi aloqalari va adabiyotlararo rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy, tahliliy va nazariy nuqtayi nazardan umumlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Osiyo-amerika adabiyoti kontekstida Xitoy-amerika adabiyotining rolini o'rganish;

Emi Tanning asarlaridagi narratologiya uslubini Gert Xofstedening madaniyat, ko'p madaniyatlilik va rivoya san'ati nazariyalari bilan bog'liq holda o'rganish;

Emi Tan asarlaridagi rivoya strategiyalarini, jumladan, roviylar, rivoya qatlamlari va tuzilishi, rivoya vaqti va makonini hamda rivoya ovozini ajratib ko'rsatish;

Emi Tan asarlarini madaniy o'ziga xoslik va ko'p madaniyatlilik nuqtayi nazaridan alohida hamda qiyosiy ravishda o'rganish;

Emi Tanning romanlarini feminizm, patriarxal madaniyat, strukturalizm va postkolonial adabiy tanqidchilik nuqtayi nazaridan tadqiq qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Emi Tanning "The Joy Luck Club" ("Quvonch va omad klubi"), "The Kitchen God's Wife" ("Oshxona ilohining rafiqasi"), "The Hundred Secret Senses" ("Yuzta sirli tuyg'ular"), "The Bonesetter's Daughter" ("Siniqchining qizi") asarlari tanlandi.

Tadqiqotning predmetini Xitoy-amerika adabiyoti va uning Emi Tanning ijodiga ta'siri, xususan, madaniy o'ziga xoslik, ko'p madaniyatlilik, insoniy munosabatlar hamda rivoya strategiyalari tushunchalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari tarixiy, biografik, qiyosiy, psixologik, tizimli tahlil usullarini o'z ichiga oladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Xitoy-Amerika adabiyotidagi milliy va umuminsoniy g'oyalarning mushtarak hamda farqli jihatlari orientalizmning nazariy kategoriyalari, etnik qadriyatlar, til va muloqot konteksti doirasida Gert Hofstedening madaniy mezonlar nazariyasi asosida aniqlangan;

Sharq va G'arb adabiy munosabatlarining kesishuvi, Xitoy va Amerika madaniyati hamda qadriyatlarini inkor etmagan holda G'arbda yaratilgan badiiy

²³ Ruzmatova Dilnoza. Xolid Husayniy asarlarining badiiy o'ziga xosligi. Fil. fan. b. fals. PhD diss. – Toshkent, 2020. – 146 b.

asarlarda sharqona ruh hamda falsafaning aks etishi, badiiy uslub, shakl va mazmun komponentlari, diaspora adabiyotining terminologiyasi va identifikatsiyasi bilan bog'liq muammolar ko'pmadaniyatlilik va feminizm g'oyasi asosida izohlangan;

roviy-qahramon nuqtayi nazaridan hikoya qilish strategiyalari, rivoya qatlamlari tuzilishi, zamoni va makoni, lingvistik xususiyatlari va ifoda usullari, bayon subyeksi va obyeksi badiiy-konseptual yaxlitlikda ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan;

ijodkor izlanishi, badiiy mahorati va uslubini barqaror poetik an'analar hamda novatorlik asosida namoyon etish muammolari Emi Tan ijodi misolida badiiylikning ham mazmuniy, ham shakliy mezonlari negizida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalariga quyidagilar kiradi:

diaspora adabiyotining muhim xususiyatlarini tahlil va tadqiq qilish natijasida olingan xulosalar asosida adabiyotshunoslikning yangi ilmiy-nazariy tushunchalarini taqdim etishda adabiyot nazariyasi, qiyosiy adabiyotshunoslik kabi fanlar bo'yicha yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi;

Xitoy-amerika diasporasi adabiyotida yozuvchining ijodiy va shaxsiy uslubi hamda epik mahorati xususiyatlarini tahlil qilish imkoniyatlari kengaydi;

Emi Tan romanlaridagi insonlar o'rtasidagi munosabatlar va ayollar haqidagi feministik g'oyalar shakllanishi tahlili orqali ko'p madaniyatlilik sharoitida barkamol jamiyatning ahamiyati ilgari surilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi mahalliy va chet el olimlarning fikr-mulohazalariga asoslanadi hamda foydalanilgan tadqiqot usullari tadqiqot maqsadlariga mos kelib, bir-birini to'ldiradi. Bu, o'z navbatida, adabiy tanqidchilik metodologiyasidan foydalangan holda tahlil va talqin qilish orqali belgilanadi. Bundan tashqari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi xulosalarning asoslanganligi, muammoning o'ziga xos shakllantirilishi, ishda qo'llaniladigan yondashuv va usullarning samaradorligida ham namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, chiqarilgan xulosalar jahon adabiyotida dolzarb bo'lgan diaspora adabiyoti nazariyasiga oid mavjud ma'lumotlarni kengaytirib, tadqiqot amaliyotida keng foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tadqiqot natijasida olingan xulosalarni "Zamonaviy Angliya-Amerika adabiyoti", "Qiyosiy adabiyotshunoslik", "Adabiyot nazariyasi", "Adabiy oqimlar", "Adabiy-badiiy tahlil usullari" kabi fanlar va maxsus kurslarni o'qitishda, shuningdek, o'quv qo'llanmalar, darsliklar, to'plamlar, lug'atlar yaratishda qo'llash imkoniyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xitoy Amerika diaspora adabiyoti va uning Emi Tan ijodiga ta'sirini tahlil qilish jarayonida olingan ilmiy natijalar va xulosalar asosida:

Xitoy-Amerika adabiyotidagi milliy va umuminsoniy g'oyalarning universal hamda farqli jihatlari oriyentalizmning nazariy kategoriyalari, etnik qadriyatlar, til va muloqot konteksti doirasida Gert Hofstedening madaniy mezonlar nazariyasi asosida aniqlangani xususidagi ilmiy natijalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Xalqaro aloqalar va badiiy tarjima bo'limi faoliyatida samarali foydalanilgan

(O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 19-fevraldagi 01-03/202-son ma‘lumotnomasi). Natijada dunyo adabiyotining eng yaxshi namunalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish va chop etish bilan bog‘liq vazifalarning bajarilishiga xizmat qilgan;

Sharq va G‘arb adabiy munosabatlarining kesishuvi, Xitoy va Amerika madaniyati hamda qadriyatlarini inkor etmagan holda G‘arbda yaratilgan badiiy asarlarda sharqona ruh hamda falsafaning aks etishi, hayotni aks ettirish tamoyillari, badiiy uslub, shakl va mazmun hamda uning komponentlari, diaspora adabiyotining terminologiyasi va ularning identifikatsiyasi bilan bog‘liq muammolar ko‘pmadaniyatlilik va feminizm g‘oyasi negizida izohlanganiga oid taklif va tavsiyalar Xitoyning Baoding universitetidagi Chet tillari ta‘limi va xalqaro biznes kollejidagi amaliy darslarda qo‘llanilgan (Xitoy Xalq Respublikasi Baodin universitetining 2024-yil 30-martdagi 202403-18-sonli sertifikat). Natijada amaliy darslar Sharq va G‘arb adabiy aloqalari borasidagi ma‘lumotlar bilan boyitilgan;

hikoyachi-qahramon nuqtayi nazaridan hikoya qilish strategiyalari, hikoya qatlamlari va tuzilishi, zamoni va makoni, lingvistik xususiyatlari va ifoda usullari, bayon subyekt va obyekt badiiy va konseptual yaxlitlikda ilmiy-nazariy jihatdan asoslangani hamda Emi Tanning romanlari badiiyatiga oid nazariy xulosalardan Xebey dasturiy ta‘minot institutining Umumiy kurslarni o‘qitish kafedrasida faoliyatida foydalanilgan (Xebey dasturiy ta‘minot institutining 2024-yil 1-apreldagi 2404-son ma‘lumotnomasi). Natijada umumiy kurslarda ta‘lim oluvchilar Emi Tanning ijodi bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘lgan;

ijodkor izlanishi, badiiy mahorati va uslubini barqaror poetik an‘analar hamda novatorlik asosida namoyon etish muammolari Emi Tan ijodi misolida badiiylikning ham mazmuniy, ham shakliy mezonlari negizida ochib berilgani haqidagi nazariy hamda amaliy ma‘lumotlardan “ICM, KA-107 – Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasida xalqaro kredit mobilligi” nomli xalqaro ilmiy-amaliy loyihada, Britaniya Kengashi ko‘magida amalga oshirilgan “Ingliz tili maktab predmeti sifatida” (1683580) mavzusidagi xalqaro loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti 2024-yil 30-avgustdagi 01/513-son, 01/514-son ma‘lumotnomalari). Natijada loyihaning o‘quv-uslubiy materiallari Xitoy-Amerika diaspora adabiyotiga doir ma‘lumotlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, 3 ta xalqaro va 4 ta mahalliy ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan 1 tasi monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosida ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 3 ta, respublika ilmiy jurnallarida 8 ta maqola chop etilgan. Qolgan ishlar xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 137 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad hamda vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Xitoy Amerika diaspora adabiyoti: asosiy xususiyatlar va tendensiyalar”** deb nomlangan I bobida Xitoy-Amerika adabiyotining ta'rifi, xitoy millatiga mansub amerikalik immigrantlarning ahvoli bilan birga Xitoy Amerika adabiyotining tarixi va rivojlanishi, diaspora adabiyoti va rivojlanishining xususiyatlari, shuningdek, tendensiyalari o'rganiladi.

“Xitoy Amerika adabiyotining asosiy xususiyatlari va muammolar” faslida Xitoy Amerika adabiyotining tub ma'nosini aniqlashning ahamiyati muhokama qilindi va qiyosiy tadqiqotlarga asoslangan keng qamrovli ta'rif taqdim etildi. Fikrimizcha, Xitoy Amerika adabiyoti xitoylik muhojirlar yoki ularning ikkinchi avlodlari tomonidan yaratilgan asarlarni o'z ichiga olgan bo'lib, ularning okeanorti mamlakatidagi kechinmalari tasvirini, jumladan, xotiralar va tarjimai hollarni o'z ichiga oladi, shu bilan birga, ikki tomonlama etnik atributlar va madaniy an'analarning mualliflarga bo'lgan ta'sirini aks ettiradi.

Ushbu qismda, Xitoy Amerika diaspora adabiyoti adabiyotining bir shakli sifatida ta'kidlab o'tiladi, diaspora tushunchasini tanish va notanish muhitlar o'rtasidagi sarson-sargardonlik holati sifatida tushuntiriladi. Ushbu asarlarda qahramonlar duch keladigan muammolar sirasiga madaniy mansublikning so'roq ostida qolishi, irqiy kamsitish, boshpanasizlik va immigrant oilalaridagi avlodlararo madaniy bo'shliqlar kiradi.

Bundan tashqari, Xitoy Amerika adabiyotining taraqqiy etishi va AQSHning muhojirlar bo'yicha olib borayotgan siyosati hamda globallashuv o'rtasidagi munosabatlar ham atroflicha o'rganiladi. Jumladan, xitoylik muhojirlarning Qo'shma Shtatlar rivojigaga qo'shgan tarixiy hissasi, ularni irqi, dini va millatiga binoan kamsituvchi qonunlar bilan kurashi va Chaynataun jamiyatlaridagi ko'rgan-kechirganlari haqida so'z boradi. Xitoy Amerika adabiyotida bot-bot qalamga olinuvchi mavzularga madaniy o'ziga xoslik, Vatanni qo'msash, ko'chish azobi, orzular zavoli va oilaviy munosabatlar tanazzulini misol sifatida keltirish mumkin. Xitoy Amerika adabiyotini uch bosqichga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq ko'rildi:

- 1. Erta kurtak yozish davri (XIX asr oxiridan 1960-yillargacha bo'lgan davr);**
- 2. Keskin burilishlar davri (1970-1980-yillar);**
- 3. Gullab-yashnash davri (1980-yillar oxiridan 1990-yillar boshigacha bo'lgan oraliqdagi davr).**

I bobning **“Emi Tanning Xitoy merika ayollar adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasi”** nomli 2-faslida Sui Sin Far, Maksin Xong Kingston, Jade Snow Vong, Fae

Myenne Ng, Emi Tan va Gish Jen kabi xitoylik ayol yozuvchilarning adabiy yutuqlari e'tirof etiladi. Ushbu yozuvchilarning asarlari butun dunyo o'quvchilarini xitoy amerikalik muhojirlar va ularning farzandlarining tarixi hamda hayoti bilan tanishtirishda, ayniqsa, ayol muhojirlarning kechinmalariga ularning e'tiborini qaratishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu ayol yozuvchilarning asarlarida matonat, mehnatsevarlik, kurash ruhi, kelajak avlodlarga madaniy-ma'rifiy ta'sir ko'rsatish mavzulari yoritilgan.

Zamonaviy xitoy amerikalik yozuvchilarning aksariyati XX asr o'rtalarida AQSHda tug'ilgan xitoylik muhojirlarning ikkinchi avlodiga mansubdir. Ayol yozuvchilar o'z onalaridan ilhom olib, oilalari va o'tmishlari asosida hikoyalar yozishlari natijasida tarjimai hol ko'rinishidagi memuar asarlar paydo bo'lib, Xitoy Amerika adabiyotining vujudga kelish xususiyatlarini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur asarlarda Xitoyning an'anaviy madaniyati, bayramlari, taomlari va tabiatining go'zalliklari tasvirlangan bo'lib, ularda, shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasi tashkil etilishidan oldingi ijtimoiy-siyosiy sharoitlarga sharhlar ham berib ketilgan. Bundan tashqari, asarlar muhojirlarning ulargailhom manbai bo'lib xizmat qiluvchi Qo'shma Shtatlardagi mislsiz muvaffaqiyatga qattiq intilishlarini aks ettiradi.

Zamonaviy xitoy amerikalik yozuvchi Emi Tan o'zining ajoyib rivoya mahorati va oilaviy munosabatlarga, ayniqsa, onalar va qizlar o'rtasidagi munosabatlarga chuqur nazar solishi bilan tanilgan. Uning romanlari nafaqat Amerikada, balki Xitoyda ham o'rganilishi madaniy to'qnashuvlar va madaniy o'ziga xoslikning saqlanib qolinishi yoki yangidan shakllanishi singari dolzarb mavzular teranroq tadqiq etilishiga sabab bo'lgan. Tan Xitoydagi shart-sharoitlarning ochiqdan-ochiq tasvirini taqdim etganligi uchun tanqidlarga uchragan bo'lsa-da, uning asarlari onasi va buvisining haqiqiy kechinmalariga asoslanganligini, hech qaysi voqea bo'rttirib ko'rsatilmaganligini ta'kidlash joiz. U hikoya qilib berayotgan voqea-hodisalar va tasvirlangan ijtimoiy muhit mavjud tarixiy voqelikka asoslangan. Asardagi onalar va qiz farzandlar o'rtasidagi munosabatlar, do'stlik, ayollarning qiyinchiliklarga qaramasdan matonat ko'rsatishi, muhabbatga va baxtli hayotga intilishi Tanning ijodidagi eng ustuvor umuminsoniy mavzulardan biri bo'lib xizmat qiladi.

“Emi Tan romanlarida insonlararo munosabatlar va identiklik muammosi ko'pmadaniyatlilik va feminizm nuqtayi nazaridan” deya nomlanuvchi **II bobda** Xitoy hamda Amerika o'rtasidagi madaniy tafovutlar ko'rib chiqiladi, Xitoy madaniyatida kollektivizm va Amerika madaniyatida individualizm hodisasi, turfa xil diniy e'tiqodlar natijasida yuzaga kelgan to'qnashuvlar hamda ziddiyatlarlarni ta'kidlab ko'rsatiladi. Amerikada xitoylik onalardan tug'ilgan qiz farzandlarning onalari bilan o'zaro ziddiyatli munosabatlari ham qalamga olinadi. Tanning romanlarida asosiy urg'u aynan zamonaviy Amerikadagi xitoylik onalar hamda qiz farzandlar o'rtasidagi qarama-qarshilik va murosa qilish mavzusiga berilgan. Umuman olganda, II bobda Emi Tan romanlarida mavjud madaniy, oilaviy va feministik mavzular hamda ularning Xitoy amerika diasporasidan o'rin olgan o'ziga xos jihatlari va munosabatlarga ta'siri haqida tushunchalar berilgan.

“Insoniy munosabatlar: qarama-qarshilik va ziddiyatdan yarashuv va

totuvlikkacha” nomli faslda Emi Tanning “The Joy Luck Club” (“Omad va quvonch klubi”), “The Kitchen God’s wife” (“Oshxona ilohining rafiqasi”), “The hundred Secret Senses” (“Yuz sirli his”) va “Bonesetter’s daughter” (Siniqchining qizi”) romanlaridagi insoniy munosabatlar tadqiqiga keng o‘rin ajratilgan. Geert Hofstedening madaniy mezonlar nazariyasiga Xitoy va Amerika madaniyati o‘rtasidagi tafovutlarni tahlil qilishda murojaat qilindi. Xitoy madaniyatining kollektivizm (uyushganlik), uzoq muddatli perspektivalar tuzish va konfutsiylik hamda buddizm ta’siriga berilganlik jihatlari bilan ajralib tursa, Amerika madaniyati individualizmga urg‘u beradi va qisqa muddatli perspektivalar bilan yashaydi, xristianlik esa asosiy din hisoblanadi. Ushbu madaniy tafovutlar xitoylik onalar va ularning Amerikada tug‘ilgan qiz farzandlari o‘rtasidagi mojarolar hamda qarama-qarshiliklarga yo‘l ochadi.

Emi Tanning romanlari ko‘pincha zamonaviy Amerikadagi onalar va qizlar o‘rtasidagi keskin munosabatlarni o‘rganadi. Asrlarda takrorlanuvchi mavzu – qarama-qarshilikdan yarashishgacha bosib o‘tilgan yo‘l syujet qurilishini tashkil etadi va muallifning ushbu asarlarni yaratishda shaxsiy hissiy ehtiyojlaridan kelib chiqqanligini ko‘rsatadi. Tan o‘z onasi va buvisidan ilhomlanib, Xitoy madaniy merosini anglab yetishga intiladi. Ona bilan yarashuv hodisasi asosan qizlari hayotda yoki turmush qurish oldidan ikkilanishlarga duch kelganda sodir bo‘ladi va qizlarning onalari tavsiya va maslahat yo‘sinida hayotiy hikoyalari hamda kechinmalari bilan o‘rtoqlashadi. Qizlar o‘zlarining kelib chiqish tarixini, nasl-nasabini o‘rganishga, onalarining maslahatlarini to‘g‘ri qabul qilishga hamda ikki avlod o‘rtasidagi tafovutlarni bartaraf etishga faol intilishadi.

Tan romanlarida, ko‘pincha, birinchi avlod xitoy amerikalik ayollar begona yurtda azob-uqubatlarga duch kelishlari va turmushlarida o‘zlari niyat qilgan baxtga erisha olmasliklari tarannum etiladi. Vatandan yiroqlik, sog‘inch hissi, ko‘nika olmaslik, doimiy ko‘chib yurishlar va farzandlar bilan ziddiyatga borish kabi diasporaga oid muammolar qarshisida Tanning ayol qahramonlari zolim kuchlarga qarshi mardonavor tura olish hamda bir-birlarini qo‘llab-quvvatlash uchun jamolarga birlashib harakat qilishadi. Bunda ular o‘zlarining his-tuyg‘ularini va kechinmalarini ifoda etishlari, hayotiy muammolarini bo‘lishishlari va birgalikda yechim topishlari mumkin bo‘lgan munosabatlar uchun mos makon yaratishadi. Raqobat va taqqoslashlar bo‘lib turishiga qaramay, ular qiyin paytlarda bir-biriga yordam beradigan haqiqiy do‘stlardir. “The Joy Luck Club”da to‘rtta ona bir necha o‘n yilliklar davomida o‘z jamoalarida faol mashg‘ulotlar olib borishadi; “The Kitchen God’s Wife”da Vinni, Xulan va Du bir oila sifatida o‘zaro do‘stlik hamda yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini yo‘lga qo‘yishadi; “The Hundred Secret Senses”da Kvan Oliviya ismli singlisi bilan sadoqat hamda do‘stlik rishtalarini o‘rnatadi. “Bonesetter’s daughter” romanida esa LuLing va GaoLing shunday do‘stlik munosabatlarini o‘rnata olgan ayol qahramonlardir.

“Ko‘pmadaniyatlik va feminizmning identiklik muammosi va o‘zlikni yo‘qotishdagi ta’siri” faslida identiklik muammosining asosiy jihatlari ochib beradi. Erik Eriksonning shaxsiyatning rivojlanishi haqidagi nazariyasida identiklik muammosi payso bo‘lishida ham individual, ham madaniy omillarning ta’siri bo‘lishi

ta'kidlanadi. Insonlar madaniy o'zgarishlarga uchrashganida va hayotlarida muhim to'siqlarga duch kelganlarida, ularning bir butunlik va makonga tegishlilik tuyg'usi shubha ostida qolib qo'yishi mumkin, bu esa shaxsiyat bilan bog'liq muammolar yoki inqirozlarga olib keladi. 19-asrdan boshlab uchta to'liqinni qamrab olgan feministik harakat patriarxal me'yorlarga qarshi chiqqan va siyosiy huquqlarga, huquqiy va ijtimoiy tenglikka erishish, shuningdek, individuallik va xilma-xillikka e'tibor qaratishni maqsad qilib oldi. Emi Tan romanlaridagi ayol qahramonlar qadimgi Xitoy patriarxal jamiyati tatbiq etgan qoidalar sababli bir qator qiyinchiliklarni boshidan kechirishadi.

Ko'pmadaniyatlilik jamiyatdagi madaniy guruhlarining xilma-xilligini tan oladi, madaniy tafovutlarni qadrlashga undaydi va madaniy kamchiliklarning tenglik huququ tan olinishiga intiladi. Ko'pmadaniyatlilik va feminizmdan ilhomlangan zamonaviy ayollar sevgi-muhabbat to'la baxtli hayotga faol intilishadi, garchi bu aksar hollarda mashaqqatli kechsa ham taslim bo'lishmaydi. Patriarxal muhit domida umr kechirgan oldingi avlod kampirleri ovozlarini baralla ko'tarib, gapirish imkoniga ega bo'lmagan bo'lsalar ham, o'zlarining bukilmas irodasi bilan qizlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishadi.

Tan romanlaridagi voqea-hodisalar, asosan, bir vaqtning o'zida Xitoy va Amerika Qo'shma Shtatlari dunyosini kezib yurgan birinchi avlod muhojirlari guruhiga mansub keksa ayollar tilidan hikoya qilinadi. Ular onalari uchun so'zlovchi, qizlari uchun maslahatchi va o'z hayotiy kechinmalarini hikoya qiluvchi bo'lib xizmat qiladi. Itoatkorlikka va bag'rikenglikka o'rgatilgan patriarxal muhitda ulg'ayganiga qaramay, ular boshqacha fikrlashni boshlaydilar. Ko'p yillar davomida o'zlarining o'tmishlarini sir saqlaganlaridan so'ng, ular o'tmish haqidagi bilimlari qizlarining qiyinchiliklarha yechim topishida asqatishiga umid qilib, ular bilna o'z hikoyalarini baham ko'rishga qaror qilishdi. Ushbu almashinuv orqali madaniy to'siqlar yo'q qilinadi va onalar ham, qizlar ham o'zlarining umumiy merosidan kuch va umid topishadi.

“Rivoya strategiyalari va lisoniy xususiyatlar” deya nomlanuvchi III bobda Emi Tan romanlaridagi badiiy rivoya strategiyalari va lisoniy xususiyatlarga oid tadqiqotlar natijalari ko'rsatilib, rivoya strategiyalari romanlarning mavzuviy g'oyalarini aks ettirishidagi ahamiyatiga oid tahlillar taqdim qilingan.

